QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI STATISTIKA
BOSHQARMASI





# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-MAY*
*(DASTLABKI MA’LUMOT)*



**Sanoat statistikasi bo‘limi**
**Tel.: 61-222-75-87**

# Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-may oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida respublika korxonalari tomonidan 7083,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,8 % ni tashkil etdi.

| 0,4 % | 85,8 % | 13,2 % | 0,6 % |
|---|---|---|---|
| **B** | **C** | **D** | **E** |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|
| B | 9,8 % | 57,4 % |
| C | 113,2 % | 100,8 % |
| D | 136,0 % | 101,2 % |
| E | 78,0 % | 109,4 % |

**Izoh:** **Izoh:** **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 0,8 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 1,2 % ga hamda suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish – 9,4 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**2022- yil**
**30,1 mlrd. So‘m**

**2022- yil**
**57,4 %**

**2021- yil**
**26,0 mlrd. so‘m**

**2021- yil**
**9,8 %**

**2020- yil**
**50,6 mlrd. so‘m**

**2020- yil**
**88,5 %**




*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 30,1 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

**2021- yil**
**B**
**0,4 %**

**2022- yil**
**B**
**0,4 %**

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ohah tosh, ming t. | 75,0 | 108,4 | 33,4 |







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 865,3 | 604,4 | -260,9 |
| Gaz kondensati, ming t. | 42,2 | 33,2 | -9,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so‘m

FHI,% da




*2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6078,3 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,8 % ini tashkil etdi.*




*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yil yanvar-may 1,1 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 63,8 % (69,1 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 3,4 % (2,8 %) va quyi texnologiyalisi – 32,6 % (27,0 %) ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 63,9 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 95,4 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 13,8 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,8 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,6 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 109,5 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,6 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 133,2 %) tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

**Aroq**




**Paxta chigiti**




**Sement**




**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**




**Kalava ip**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**



2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 18,2 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning mos davriga nisbatan 38,1 % ga), 27,1 ming tonna paxta chigiti (25,9 %), 1,4 ming tonna tozalangan guruch (20,0 %), 118,6 ming tonna portlandsement (16,8 %), 7,1 ming tonna kalava ip (0,1 % ) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi. Shuningdek, 53,8 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (1,3 % ), 1516,1 ming litr aroq (6,2 %), va 1,9 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (49,3 %) ishlab chiqarilib, 2021-yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Aroq, *ming litr 100 % li spirt*** | 1616,4 | 1516,1 | -100,3 |
| **Polietilen, *ming t.*** | 148,7 | 126,3 | -22,4 |
| **Polipropilen, *ming t.*** | 40,6 | 36,0 | -4,6 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t.** | 54,5 | 53,8 | -0,7 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 13,2 | 18,2 | 5,0 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t.** | 3,7 | 1,9 | -1,8 |

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 68,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 118,6 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 63,8 % ni, fizik hajm indeksi 95,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3877,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-may oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 85,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 33,2 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 158,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 10,2 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 754,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 127,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqa-rishning ulushi 1,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 104,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 83,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 110,4 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 3,8 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1007,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021- yil yanvar-may oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 132,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 160,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 60,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 935,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,2 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 1,2 % ga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | 2056,1 | 2369,9 | 313,8 |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | 158,5 | 150,2 | -8,3 |
| **Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, *mln. so‘m*** | 53726,7 | 58085,0 | 4358,3 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,6 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.




### Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-may | 2022- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 2713,1 | 3436,8 | 126,7 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 6562,7 | 7748,5 | 118,1 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 22490,7 | 24878,3 | 110,6 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar – 10,6 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 26,7 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig’ish bo‘yicha xizmatlar – 18,1 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1026,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 14,5 % ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

| | |
|---|---|
| 2021-yil yanvar-may | 65,2 % |
| 2022-yil yanvar-may | 64,4 % |

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

| | |
|---|---|
| 2021-yil yanvar-may | 34,8 % |
| 2022-yil yanvar-may | 35,6 % |

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 8,0 % (2021- yil yanvar-may oylari 6,8 %) ni tashkil etdi.*

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 16,9 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 14,5 % ni, Ellikqal’a tumani 9,6 % ni, Xo‘jayli tumani 8,2 % ni, Beruniy tumani 7,6 % ni, To‘rtko‘l tumani 7,5 % ni, Chimboy tumani 6,8 % ni va tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati respublika o‘sish sur’ati (104,9 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Qorao‘zak (177,2 %), Shumanay (162,1 %), Ellikqal’a (145,1 %), Chimboy (127,4 %), Nukus (126,4 %), Beruniy (116,6 %), Mo‘ynoq (113,4 %), Kegeyli (113,0 %) hamda Amudaryo (110,7 %) tumanlarida qayd etildi.*

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 16,9 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 14,5 % ni, Ellikqal’a tumani 9,6 % ni, Xo‘jayli tumani 8,2 % ni, Beruniy tumani 7,6 % ni, To‘rtko‘l 7,5 % ni va Chimboy tumani 6,8 % ni tashkil etdi.*




*904,1 mlrd. so‘m*
*2020- yil*

*949,0 mlrd. so‘m*
*2021- yil*

*1026,3 mlrd. so‘m*
*2022- yil*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020-yil** 105,3 %

**2021- yil** 101,8 %

**2022- yil** 104,9 %

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Ellikqal’a tumaniga to‘g‘ri kelib, 17,8 % ni, shuningdek, Xo‘jayli tumani 12,8 % ni, Nukus shahri 11,0 % ni, Shumanay tumani 10,2 % ni, Beruniy tumani 7,6 % ni hamda To‘rtko‘l tumani 7,4 % ni tashkil etdi.*

**284,0** mlrd. so‘m
2020- yil

**329,8** mlrd. so‘m
2021- yil

**365,9** mlrd. so‘m
2022- yil




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 91,9 %

02 2021- yil 102,2 %

03 2022- yil 109,7 %



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Taxiatosh tumaniga to‘g‘ri kelib, 20,3 %, shuningdek, Nukus shahri 20,1 % ni, Beruniy 7,6 % ni, To‘rtko‘l 7,5 % ni, Chimboy 6,8 % ni, 5,7 % ni Qo‘ng‘irot hamda Xo‘jayli tumanlari tashkil etdi.




*620,1 mlrd. so‘m*
*2020- yil*

*619,2 mlrd. so‘m*
*2021- yil*

*660,6 mlrd. so‘m*
*2022- yil*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 112,8 %

02 2021- yil 101,6 %

03 2022- yil 102,4 %

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 55,9 %), Taxiatosh (13,4 %), Qo‘ng‘irot (4,4 %), To‘rtko‘l (4,1 %), Beruniy (3,5 %) va Amudaryo (3,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.*

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**

**2020- yil** — 5462,3 mlrd. so‘m

**2021- yil** — 6814,5 mlrd. so‘m

**2022- yil** — 7083,2 mlrd. so‘m



**2020- yil** — 103,5 %

**2021- yil** — 108,1%

**2022- yil** — 100,3 %



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (12010,6 ming so‘m) va Taxiatosh tumanida 12535,8 ming so‘m) o‘rtacha Respublika darajasi ko‘rsatkichidan (3628,5 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*

| | o‘sish sur’ati | ming. so‘m |
|---|---|---|
| Amudaryo | 108,2 | 1148,7 |
| Beruniy | 116,4 | 1253,2 |
| Bo‘zatov | 104,8 | 290,1 |
| Qorao‘zak | 104,8 | 2237,4 |
| Kegeyli | 104,4 | 486,7 |
| Qo‘ng‘irot | 100,4 | 2309,5 |
| Qonliko‘l | 103,0 | 3056,8 |
| Mo‘ynoq | 108,6 | 2076,4 |
| Nukus t. | 102,8 | 2075,6 |
| Taxiatosh | 98,3 | 12535,8 |
| Taxtako‘pir | 110,1 | 3839,4 |
| To‘rtko‘l | 133,2 | 1315,2 |
| Xo‘jayli | 105,2 | 840,6 |
| Chimboy | 85,9 | 889,8 |
| Shumanay | 113,3 | 1118,7 |
| Ellikqal'a | 97,2 | 1000,0 |
| Nukus sh. | 89,7 | 12010,6 |

*o‘sish sur’ati*

*ming. so‘m*

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

| | |
|---|---|
| 2020- yil | 2873,2 ming so‘m |
| 2021- yil | 3538,9 ming so‘m |
| 2022- yil | 3628,5 ming so‘m |



| | | |
|---|---|---|
| 01 | 2020- yil | 102,1 % |
| 02 | 2021- yil | 106,6 % |
| 03 | 2022- yil | 99,0 % |

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 525,8 ming so‘m bo‘lgani holda, Taxiatosh tumanida 1960,8 ming so‘mni, Taxtako‘pir tumanida 1046,8 ming so‘mni, Shumanay tumanida 797,9 ming so‘mni va Xo‘jayli tumanida 672,4 ming so‘mni tashkil etdi.

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**2020- yil** — 475,6 ming so‘m

**2021- yil** — 492,8 ming so‘m

**2022- yil** — 525,8 ming so‘m



**2020- yil** — 103,8 %

**2021- yil** — 100,4 %

**2022- yil** — 103,5 %



## Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 3253 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1574 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 48,3 %) Nukus shahriga 664 tasi (20,4 %), To‘rtko‘l 317 tasi (9,7 %), Amudaryo 303 tasi (9,3 %), Beruniy 290 tasi (8,9 %) tumanlariga to‘gri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

**2020-yil** — 260 dona

**2021- yil** — 377 dona

**2022- yil** — 316 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2020- yil** — 2427 dona

**2021- yil** — 3073 dona

**2022- yil** — 3253 dona